USTRUSHONA TARIXINING TANGALARDA YORITILISHI

B.Xolboyev
Mustaqil tadqiqotchi

Xalqlar va davlatlar tarixini yoritishda moddiy manbalar katta ahamiyatga ega. Moddiy manbalar orasida numizmatik manbalar alohida o‘rin tutadi. Tangalar orqali tanga pullar zarb qilingan vaqtdagi pul muomalasiga, savdo yo‘llariga, iqtisodiy va madaniy aloqalariga oid savollarga javob topishi mumkin. Numizmatik materiallarning tarixiy manba sifatida ahamiyati shundaki, yozma manbalarda uchraydigan ayrim nuqsonlar (xususan, ma’lumotning yetkazilish darajasi, til va yozuv xususiyatlarining farqliligi natijasida ism, unvon va atamalarining asliyatdan uzoqlashishi va h.k) tufayli yuzaga keladigan anglashilmovchiliklar tangalarda ko‘p uchramaydi. Shu jihatdan olganda, tanga-pullarni ishonchli va sobit tarixiy manba sifatida baholash mumkin.

Yurtimiz Markaziy Osiyo tarixida ilk shaharshozlik madaniyati va davlatchilik an’analari vujudga kelgan hududlardan bo‘lib, mintaqadagi dastlabki mahalliy tanga pullar aynan shu yerda zarb qilingan. Mamlakatimiz hududida davlatchilik tarixini aks ettiruvchi tangalarni bir necha guruhga bo‘lib o‘rganish muhim. Shulardan biri Usturshona tangalaridir.

Usturshonada tanga zarb qildirish So‘g‘d va Chochdan ancha kech boshlangan bo‘lib, milodiy VI-VII asrlarga to‘g‘ri keladi. Tangalardagi yozuvlarda qo‘lyozma manbalardagi kabi hududning nomi Ustrushona, Usrushona, Surushona deb keltiriladi[1]. Ustrushona so‘zining ma’nosi aniq emas, biroq ayrim tadqiqitchilarning fukricha, bu nom budda ilohalaridan biri Sudurshana nomini eslatadi. Bu davrda Hindiston bilan yaqin aloqalar mavjud bo‘lganligini hisobga olsak, bu o‘xshashlik tasodifiy bo‘lmasligi mumkin. Satachari III hukumdorligi davrida zarb qilingan tangalarda o‘z rasmini qo‘ymasdan fil tasvirini tushurilganligi ham bejiz emas. Satacharining ma’nosi sanskiritchada (Sadacharya) “ustoz” degan ma’noni anglatadi[2].

Usturshona tangalarining boshqa voha hukumdorlarinikidan tafovut qiladigan jihati, ularda o‘rin olgan hukumdor tasviri o‘ziga xos qiyofada, farqli boshqa bosh kiyimi (toj) da tasvirlashdir[3]. Shuningdek mintaqaning bu davr tangalaridan faqatgina Usturshona tangalarida fil tasviri uchraydi. Garchi, bu davrda zarb qilingan (Y) shakldagi tamg‘ali tangalarda so‘g‘diy yozuvda Raxanch, Chirdmish, Satachari kabi hukumdor nomlari uchrasa ham, ularda birontasi yozma manbalarda aks etmagan. Usturshona hukumdorlari ismlariga to‘g‘ri kelmaydi. Ya’ni, tangalarda joy olgan mazkur ismlardan hech qaysisi shu paytgacha yozma manbalarda uchramaydi.

Tangalar orqali nomi bizga ma’lum bo‘lgan hukumdorlardan yoki afshinlardan birinchising ismi Chirdmish (VI-VII asrlar). Bu ism so‘g‘diycha “Mitradan kelib chiqqan” ma’nosini anglatadi[4]. Tanganing yuza qismida o‘ziga xos qanotli toj kiygan hukumdoning boshi tasvirlangan. Tangadagi suratda ushbu hukmdor quvnoq, muloyim qilib tasvirlagan. Bo‘ynida uchta yirik tosh yoki munchoqli taqinchoq, qulog‘da katta sirg‘a. Tangalarning reversida *Y* shaklidagi belgi - hukumdorlar tamg‘asi va so‘g‘dcha yozuv bo‘lib, unda “hukumdor Chirdmish” deb yozilgan. Chirdmish tangalarida Eron sosoniylari va budda ikonalari uyg‘unlashib ketgan.

Hukumdor Satachari bronza tangasining (VI-VII asrlar) yuza qismida chap tomonga qarab turgan fil tas’viri tushurilgan va atrofiga so‘g‘dcha „hukumdor Satachari” deb yozilgan.

Reversda *Y*shaklidagi belgi-tamg‘a tasvirlangan[5]. Hindlarda filga o‘xshash Ganesha xudosi bo‘lib, u savdo homiysi ham sanalgan. Bu davrda Usturshona boshqa davlar qatori Hindiston bilan savdo munosabatlarini yaxshi yo‘lga qo‘ygan, shu sababli ham tangalarga fil tas’viri tushurilgan bo‘lishi mumkin.

---

[1] Древний Заамин.-Т.: Фан, 1994. –С.64
[2] Грицина А.А.Уструшанские были. –Т.: Из-во народного наследия им. А.Кадыри, 2000. – С.38
[3] Бобоёров Ғ. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар. // Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т., 2010. -Б. 28
[4] Грицина А.А. Уструшанские были. –Т.; Из-во народного наследия им. А.Кадыри, 2000. – С.4
[5] http//www.sogdcoins.narod.ru/ustrushana/coins.html

Ustushona tangalarida uchta dunyoviy dinlar buddizm, zardushtiylik va xristianlik uyg'unlashib ketgan. Raxancha III davri(VI-VII asrlar) tangalarining aversida boshqa Ustrushona hukmdorlari tangalaridagi kabi tojli hukumdor tasvirlangan bo'lsa, orqa tomonida *Y* shaklidagi tamg'a bilan birgalikda xoch tasviri tushurilgan. Bunday xochlar boshqa O'rta Osiyo hukumdorlarining tangalarida ham uchragan va bu holat ko'pincha Vizantiyaning ta'siri bilan izohlanadi.

Xoch dunyodagi qadimgi 3 belgilardan biri hisoblanadi va quyosh ma'nosini anglatadi. Shu xildagi belgilar qadimgi hindlar, ossuriyaliklar, xitoyliklar, qadimgi skandinaviya xalqlarida, germanlar, etrusklar, va finikiyaliklarda mavjud bo'lgan. Xristianlik dini paydo bo'lgach, xristianlar xochni o'zlarining mafkuraviy belgisi sifatida qabul qilganlar. Ma'lumki Iso Masihni xochga qoqib azoblashgan, shu tufayli xristianlar uni qiynoq xochlari, jinoyatchilarni jazolash timsoli sifatida qabul qilishgan. Shunga o'xshash T shaklida yoki X shaklida xochlar qadimgi Eronda, qadimgi Rimda va Misrda mavjud bo'lgan. Bugungi kunda 17 xil xoch tasviri mavjud[1].

Qadimdan xaloskor olov va quyosh timsoli sanalgan xoch tasvirining sulolaviy tamg'alar bilan yonma yon qo'yilishi bir tomondan UIstrushona hukumdorlari hokimiyatining qonuniyligi va ularning qudratini ko'rsatish maqsadida qo'yilgan bo'lsa, boshqa tomondan hukumron sulolalar o'rtasidagi ziddiyatlarni o'zida namoyon qiladi. Chunki yuqorida keltirilgan hukumdorlar nomini VIII asrdan keyin uchramaymiz, bu davrdan davlatni boshqa sulola idora eta boshlagan.Yangi sulolaning shakllanishida turklar ma'lum o'rin tutgan bo'ib, ulardan yozma manbalar orqali Xorabug'ro (720-738 yy.), Xanaxora (738-800 yy.), Kovus (800-825 yy.), Abul Hasan Haydar ibn Kovus (Al-Afshin) (825-840 yy.) larning nomi ma'lum[2].

Ilk musulmon tangalarining zarb etila boshlanishi 892-894 yillarga to'g'ri keladi[3]. V.V.Bartoldning ma'lumotlarga qaraganda 892-893 yillardagi mis tangalarda so'nggi Usturshona afshini Sayid ibn Abdulloh (880-893 yy.) nomi zarb qilingan bo'lsa, 893-894 yilgi taangalarda Somoniylardan Ismoil ibn Ahmadning nomi zarb qilina boshlaydi[4]. Demak bu davrda mahalliy sulola ag'darilib, Ustrushona bevosita Somoniylar mulkiga qo'shib olingan.

Sayid ibn Abdulloh nomi bizga faqat tangalar orqali yetib kelgan, undan keyingi hukumdorlar nomi esa yozma manbalar orqali ma'lum. Raxonch III davridan keyin dyarli yuz yillik tanaffusdan so'ng ilk bor mahalliy hukmdor nomidan tanga zarb etilishi ma'lum ma'noda iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni anglatadi.

Usturshonada tangalarning zarb qilinishi, savdo, iqtisodiy, siyosiy munosabatlaning rivojlanganligidan dalolat beradi va ma'lum ma'noda davlat mustaqilligini ham ifodalaydi. Numizmatik materillar tahlili Usturshonaning mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritganligini, hukmdor o'z nomidan tanga zarb qilganligini ko'rsatadi. Uning madaniy sohalarda boshqa davlatlar bilan aloqalari yaxshi bo'lganligi sababli tangalarda umumiy uyg'unlik mavjud. Tangalarda, yuqorida qayd etib o'tilganidek, buddizm, zardushtiylik va xristianlik ramzlarining aks ettirilishi Usturshona hukmdorlari boshqa dinlarga nisbatan tolerantlik munosabati mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, Buyuk ipak yo'lida joylashgan Usturshona turli xalqlar o'rtasidagi savdo va madaniy almashinuvda muhim o'rin tutgan hudud sanaladi.

---

[1] Похлебкин В.В. Словарь международной символики и эмблематики. – М.: ЗАО Центрполиграф, 2007. - С. 210-211

[2] Грицина А.А. Уструшанские были. –Т.: Из-во народного наследия им. А.Кадыри, 2000. – С.42-45, -С. 53

[3] Древний Заамин.-Т.: Фан, 1994. С–64

[4] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т.I. –М.: 1973. С–269-282